


# FARG'ONA VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)





*Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.*

*Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.*


*Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalarini tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.*

*Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.*

*Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020-yil 1- dekabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.*

# Korxonalar va tashkilotlar soni


(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



# Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha  
2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

4

18 728



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

4 921



Oilaviy korxonona

268



Unitar korxonona

11 061



Xususiy korxonona

54



Aksiyadorlik jamiyati


397



Boshqa korxonalar

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2019- y. ■ 2020- y.


# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-noyabr oylarida)



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni


(yanvar-noyabr oylarida, birlikda)










Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **20,5** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar




# Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2020-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **17,0 foizga oshdi**



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



**188**

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

**8 542**

Ishlab chiqarish sanoati

**66**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

**127**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

2020-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlarini soni 8,9 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 117,0 % ga oshdi.

Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlarini ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 117,4 % ga (jami sanoatdagi ulushi 95,7 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 106,8 % ga (jami sanoatdagi ulushi 2,1 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 115,8 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,7 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 106,7 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,5 %) o'sishidir.




# Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **12,1** foizga oshdi




## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




**12,1** foizga oshdi



## Mikrofimlar




## Kichik korxonalar



## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




**18,6** foizga oshdi



## Oilaviy korxonalar



**27,3** foizga oshdi




## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **150,0** foizga oshdi




## Xususiy korxonalar





## Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 3,2 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 112,1 % ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu – bino va inshootlar qurishda – o'tgan yilga nisbatan 114,0 % ga (jami qurilishdagi ulushi 55,5 %), fuqarolik obyektlarini qurish – 110,0 % ga (jami qurilishdagi ulushi 10,7 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 109,7 % ga (jami qurilishdagi ulushi 33,8 %) o'sishidir.


## Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 11,8 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 130,1 % ga oshdi. Jami savdo korxonalar va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili – avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 131,4 % ga (jami savdodagi ulushi 60,3 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 130,2 % ga (jami savdodagi ulushi 30,0 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashning o'tgan yilga nisbatan – 128,7 % ga (jami savdodagi ulushi 9,7 %) o'sishidir.



# Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korrxona va tashkilotlar soni


(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni


## Mikrofirmalar

## Kichik korrxonalar




## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar


## Oilaviy korrxonalar



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korrxonalar soni




## Xususiy korrxonalar





# Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni




(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



**Kichik tadbirkorlik subyektlari soni**



**Mikrofirmalar**

**Kichik korxonalar**




**Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar**

**Oilaviy korxonalar**



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni**



**Xususiy korxonalar**



• Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

824



• Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

32



• Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

65



## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



131

yashash bo'yicha xizmatlar




2 071

Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar


2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2,2 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 127,4 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 128,6 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 94,1 %), yashash bo'yicha xizmatlarning - 111,0 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 5,9 %) o'sishidir.






### Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




### Mikrofimlar




### Kichik korxonalar




### Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



### Oilaviy korxonalar



### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



### Xususiy korxonalar




# Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **12,9** foizga oshdi




## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



## Mikrofimlar




## Kichik korxonalar



## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




**27,6** foizga oshdi



## Oilaviy korxonalar



**21,9** foizga oshdi



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



## Xususiy korxonalar



2019- y.

545

2020- y.

556


**2,0** foizga oshdi









Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **10,2** foizga oshdi




### Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



### Mikrofirmalar




### Kichik korxonalar



### Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




**11,3** foizga oshdi



### Oilaviy korxonalar



**14,9** foizga oshdi




### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **8,3** foizga oshdi





### Xususiy korxonalar





**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni**  
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)





Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra 5,1 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,4 mingtaga yoki 138,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 4,9 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,3 mingtaga yoki 134,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 1,4 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 430 taga yoki 143,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)


Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra 19,2 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,1 mingtaga yoki 126,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 18,7 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,7 mingtaga yoki 123,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 4,0 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 508 taga yoki 114,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.








Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra 462 tani tashkil etib, ulardan 451 tasi yoki 97,6 % i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 53 taga yoki 113,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatimizda 53 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-noyabr oylarida, birlikda)




**Fargʻona viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida  
faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar soni**  
(2020- yil 1- dekabr holatiga koʻra, birlikda)

	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>qo'shma korxonona</i>	<i>xorijiy korxonona</i>
<b>Belorussiya Respublikasi</b>	6	3	3
<b>Ozarbayjon Respublikasi</b>	6	3	3
<b>Qirgʻiziston Respublikasi</b>	29	26	3
<b>Qozogʻiston Respublikasi</b>	13	11	2
<b>Rossiya Federatsiyasi</b>	110	84	26
<b>Tojikiston Respublikasi</b>	4	4	
<b>Turkmaniston</b>	1	1	
<b>Ukraina</b>	4	2	2
<b>Armaniston Respublikasi</b>	3	2	1

# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

20



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)


	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
<b>Jami</b>	<b>157</b>	<b>187</b>	<b>262</b>	<b>392</b>	<b>451</b>
<i>shu jumladan:</i>					
<b>Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	2	4	8	25	27
<b>Sanoat</b>	114	130	172	225	256
<b>Qurilish</b>	3	4	7	10	15
<b>Savdo</b>	15	17	36	72	80
<b>Tashish va saqlash</b>	3	6	6	12	13
<b>Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar</b>	5	8	11	14	15
<b>Axborot va aloqa</b>	1	3	3	4	4
<b>Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish</b>	6	5	7	8	9
<b>Boshqa turlar</b>	8	10	12	22	32



# Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

■ O'sish sur'ati ■ 2020- y. ■ 2019- y.



# Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni


(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

22

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>451</b>	<b>302</b>	<b>149</b>
Oltiariq tumani	17	10	7
Qo'shtepa tumani	7	5	2
Bag'dod tumani	11	8	3
Buvayda tumani	8	6	2
Beshariq tumani	6	4	2
Quva tumani	22	15	7
Uchko'prik tumani	15	11	4
Rishton tumani	13	10	3
So'x tumani	4	3	1
Toshloq tumani	13	8	5
O'zbekiston tumani	22	20	2
Farg'ona tumani	24	13	11
Dang'ara tumani	17	8	9
Furqat tumani	6	4	2
Yozyovon tumani	5	1	4
Farg'ona shahar	153	99	54
Qo'qon shahar	60	38	22
Quvasoy shahar	26	21	5
Marg'ilon shahar	22	18	4

# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)




2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Farg'ona shahar (17,5 %), Qo'qon shahar (12,7 %), Marg'ilon shahar (9,8 %), Uchko'prik tumani (5,2 %), Dang'ara tumani (4,6 %), Oltiariq tumani (4,6 %), Quva tumani (4,6 %), O'zbekiston tumani (4,4 %), Buvayda tumani (4,4 %), Toshloq tumani (4,4 %), Farg'ona tumani (3,9 %), Bag'dod tumani (3,7 %), Rishton tumani (3,4 %), Qo'shtepa tumani (3,2 %), Quvasoy shahar (3,2 %), Beshariq tumani (3,3 %), Furqat tumani (2,5 %), So'x tumani (2,3 %), Yozyovon tumani (2,2 %) hissalariga to'g'ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2020- yil yanvar-noyabr oylarida, birlikda)


2020- yil yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Farg'ona shahar (14,6 %), Qo'qon shahar (10,3 %), Marg'ilon shahar (8,3 %), Uchko'prik tumani (4,6 %), Dang'ara tumani (3,7 %), Oltiariq tumani (5,4 %), Quva tumani (5,0 %), O'zbekiston tumani (4,6 %), Buvayda tumani (4,7 %), Toshloq tumani (4,9 %), Farg'ona tumani (4,4 %), Bag'dod tumani (4,8 %), Rishton tumani (4,4 %), Qo'shtepa tumani (3,6 %), Quvasoy shahar (3,9 %), Beshariq tumani (4,6 %), Furqat tumani (2,8 %), So'x tumani (2,5 %), Yozyovon tumani (2,9 %) hissalariga to'g'ri keladi.





# Hududlar kesimida har 1000 aholiga to'g'ri keladigan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni<sup>1)</sup>

(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)




- Bag'dod t
- Beshariq t
- Buvayda t
- Dang'ara t
- Yozyovon t
- Qo'shtepa t
- Quva t
- Quvasoy sh
- Qo'qon sh
- Marg'ilon sh
- Oltiariq t
- Rishton t
- So'x t
- Toshloq t
- O'zbekiston t
- Uchko'prik t
- Farg'ona t
- Farg'ona sh
- Furqat t

<sup>1)</sup> Doimiy aholi soni 2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra shakllantirilgan

# Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni


(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

25




## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni

(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



# Hududlar kesimida jami faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi

(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)




2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.



# Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni


(2020- yilning yanvar-noyabr oylarida, birlikda)




2020- yil yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Farg'ona shahar (5,2 %), Qo'qon shahar (4,4 %), Marg'ilon shahar (3,2 %), Uchko'prik tumani (3,6 %), Dang'ara tumani (5,0 %), Oltiariq tumani (9,4 %), Quva tumani (3,0 %), O'zbekiston tumani (7,2 %), Buvayda tumani (4,3 %), Toshloq tumani (5,2 %), Farg'ona tumani (4,3 %), Bag'dod tumani (8,4 %), Rishton tumani (10,9 %), Qo'shtepa tumani (3,0 %), Quvasoy shahar (5,4 %), Beshariq tumani (6,7 %), Furqat tumani (5,6 %), So'x tumani (1,6 %), Yozyovon tumani (3,6 %) hissalariga to'g'ri keladi.

## Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2020- yilning yanvar-noyabr oylarida, birlikda)



O'tgan yilga nisbatan % da



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar


**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Farg'ona viloyati statistika  
boshqarmasi Statistik  
regisrlarni yuritish bo'limi  
Tel.:73 249-87-34**